



**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARINI INOBATGA OLGAN HOLDA TA'LIM
TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH**

*Tuliyeva Dilorom Alimqulovna
Toshkent viloyati Parkent tumani 56-maktab*

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida, umuman olganda, barcha yoshdagi bolalarning kasb-hunarga, ma'lum bir sohaga qiziqishlaridagi eng muhim vosita psixologiyadir. O'qituvchi tajribali, bilimi zo'r bo'lishi mumkin, turli xil qiziqarli metodlardan foydalanishi mumkin, lekin yetarlicha psixologik bilim bo'lmasa, o'quvchilar bilan do'stona muhit yarata olmaydi.

Abstract: In elementary school students, in general, the most important tool in the interest of children of all ages in a profession, in a certain field, is psychology. A teacher can be experienced, well-educated, can use various interesting methods, but if there is not enough psychological knowledge, he cannot create a friendly atmosphere with students.

Аннотация: Психология является важнейшим инструментом интереса детей всех возрастов к профессии, в определенной области среди учащихся начальных классов. Учитель может быть опытным, хорошо образованным, может использовать различные интересные методы, но если у него недостаточно психологических знаний, он не сможет создать дружескую атмосферу среди учеников.

Kalit so'zlar: Pedagogika, psixologiya, munosabat, psixik jarayon, ruhiy holat, ta'lim - tarbiya, axborot - kommunikatsiya, yoshlar tarbiyasi.

Key words: Pedagogy, psychology, attitude, mental process, mental state, education - education, information - communication, youth education.

Ключевые слова: Педагогика, психология, отношение, психический процесс, психическое состояние, образование-воспитание, информация-коммуникация, воспитание молодежи.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining maktab hayotiga ko'nikishlari , o'quvdarslariga bo'lgan munosabati biroz qiyinchilik tug'diradi. Bu jarayonda o'quvchi tajribasi, metodlari va bilimidan ko'ra o'qituvchining o'quvchiga bo'lgan munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda, albatta, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida psixologik muhit muhim ahamiyat kasb etadi.Masalan,Jismoniy tarbiya o'qituvchisi



jismoniy tarbiya jarayonida o'quvchi-yoshlar va bolaning yosh xususiyatlari va psixik jarayonlari, shaxs xususiyatlarining rivojlanishini farqlash, psixik jarayonlar (diqqat, nutq, sezgilar, idrok, xayol, xotira, tafakkur, hissiyot va boshqalar), psixik holatlar (emotsiyalar, hayratlanish, ishonchlik, ijodiy ruhlanish, e'tiqodlilik, apatiya, qiziquvchanlik, bardamlilik, tetiklik) va shaxs xususiyatlarini (temperament, qobiliyat, iqtidor, mas'uliyat xarakter) jismoniy tarbiya va sport bilan bog'lay olish lozim. Mashg'ulot jarayoni, uning ta'siri, musobaqa davrida, musobaqadan so'nggi, davr, jamoa orasidagi munosabat holatlarining shakllanishi ahamiyatini biliishi lozim.[1,236]

Bu faqat jismoniy tarbiya fani uchun emas, boshqa fan o'qituvchilari ham dars davomida foydalananayotgan metodlarini o'quvchining qiziqishlari, psixik jarayonlar yoxud psixologik faoliyatlariga moslashtirib foydalanishlari maqsadga muvofiq.

Pedagogik faoliyat pedagogik vazifalarning uzlusiz hal qilinishini bildiradi. Ularni hal qilish - mazkur pedagogik vaziyatga, pedagogik maqsadga erishishini mos usulini topishdir. Sababi o'qituvchi va o'quvchi e'tiborliligi, o'quv materialiga bo'lgan munosabati, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat hamda o'quvchilar o'zi o'rtasidagi munosabat bilan ish ko'radi. Shuning uchun bir marta va har doim tekshirilgan maqsadga erishishi usuli bilan ishlash ko'p holda qulaydir. Har doim muntazam ravishda maqsadga erishishi usullarini almashtirish, mazkur pedagogik vaziyat uchun eng yaxshi usul tanlash kerak. [2, 237]

Biz faoliyatimiz davomida o'quvchilarning psixologik rivojlanishi yosh xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqligini kuzatamiz. Ruhiy jarayonlar va bola ruhiyatidagi o'zgarishlar, chunonchi, diqqat va xotira darajasi, tafakkur xususiyatlari so'z boyligi hamda nutqning rivojlanganlik darajasi va boshqalar ruhiy psixologik rivojlanishga ta'lulqidir. Bizning maktablarimizda ta'lim-tarbiya ishlari bolalarga faqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki bolalarning barcha qobiliyatlarini o'stirishni nazarda tutgan holda olib boriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan munosabatda bo'lishda sabr-toqat, vazminlik zarur. Bolaning ijodiy imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan vaziyatli omillar quyidagilar:

- vaqt chegarasi;
- stress holati;
- yuqori tashvish holati;
- tezda yechim topish istagi;
- muayyan echim uchun qat'iy chegaralarning mavjudligi;
- oldingi muvaffaqiyatsizliklardan kelib chiqadigan ishonchsizlik;



- qo'rquv;

Biz boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalashning eng muhim nazariy va amaliy jihatlarini bilishimiz kerak. Buning uchun avvalo, quyidagi psixologik - pedagogik muammolarni tushunib olmog'imiz lozim:

-o'quvchi shaxsining psixologik rivojlanganlik darajasi;

-o'quvchi shaxsining shakllanishi va o'quv-mehnat faoliyati mazmuni;

-o'quvchi shaxsi tabiatining tavsifnomasi va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.

O'quvchi shaxsining psixologik rivojlanganlik darajasini to'la yoritish uchun biz uning rivojlanish xususiyatlari borasida muayyan ma'lumotlarga ega bo'lishimiz lozim. [3,240-243]

Pedagogik psixologiya muammolari quyidagilar:-Ta'lim tarbiyaning umumiylari yosh muammolari. Bola ayni davrda nimaga ko'p ehtiyoj sezadi -kognitiv, intelektual yoki shaxs sifatini rivojlantirishgami?-Bolaning ongli ta'lim va tarbiyaga psixologik tayyorligi muammosi-Bolaning pedagogik qarovsizligi muammosi-Talimni individuallashtirishni ta'minlash muammosi Yuqorida keltirilgan psixologik-pedagogik muammolarni hal qilish o'qituvchilardan yuqori kasbiy mahoratni, psixologik bilim, k o'nikma va malakalarmi talab qiladi. Bu kabi muammolar oldini olish uchun quyidagi metodlardan foydalanish mumkin. Ular: kuzatish, yozma, g'zaki savolnomalar, eksprement va boshqalar. Bu metodlar bolalarning yoshi va psixologik, pedagogik muammolarga bog'liq ravishda qo'llaniladi. Masalan kuzatish metodi psixik xususiyatlarni uzoq vaqt davomida, rejali biror maqsad asosida o'rganish hisoblanadi. U universal metod bo'lib, turli vaziyatlarda ishlataladi. Ilmiy kuzatish hayotiy kuzatishdan tupdan farq qiladi. Hayotiy kuzatish –kundalik hayotda rejasiz amalga oshirilib, turli tasodiflarga bog'liq bo'ladi. Kuztish ilmiy bo'lishi shu bilan bir qatorda psixologik -pedagogik kuzatish bo'lishi uchun bir qancha talablarga amal qilishi lozim:1.Maqsadga yo'nalganlik umuman o'quvchini emas, balki uning shaxsiy sifatlarini aniq namoyon bo'lishini turli vaziyatlarda va faoliyatning har xil turlarda –o'yin, o'qish, mehnat, muloqot jarayonida kuzatish.2.Rejali kuzatish boshlashdan oldin vazifalar belgilab olinishi, uning tuzulishi ya'ni vaqt va vositalari, nimani qayd etish lozim. Kuzatishdan maqsad xulq-atvorda topilgan kamchiliklar to'g'irlash yo'llarini ishlab chiqish bo'lmog'i lozim.3.Mustaqillik -yo'l -yo'lakay emas mustaqil ravishda o'tkazilishi kerak.4.Tabiiylik kuzatishning tabiiy sharoitlarda o'tkazilishi, o'qituvchining ishtirokisiz o'tkazilishi zarurki, o'quvchi kuzatilayotganini sezmasligi kerak.5.Tizimlilik -tizimli ravishda yoki rejalahshtirilgan ma'lum oraliqdan so'ng o'tkazilishi zarur.6.Obyektivlik taxminlar bilan emas, aniq fakt, harakat, o'quvchi xulq-atvordinagi xususiyatlarini qayd etish, shu asosda xulosa



chiqarish lozim.7.Qayd etish –olingen natijalar kuzatish jarayonida yoki o'tkazilgandan so'ng darhol qayd etilishi lozim.[4,699]

Ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini samarali va sifatli tashkil etish, shu jumladan, ish faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari samaradorligini oshirish; o'quvchilarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb-hunarga moyilliklari asosida to'g'ri kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashish; turli yosh davrlarida o'quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy taraqqiyotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarning oldini olish;o'quvchilar ta'lim muassasasining ijtimoiy muhitiga moslasha olmasligi holatlarini korreksiyalash, ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

pedagogik jamoalarda sog'lom psixologik muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash,

jamoa a'zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish; iste'dodli va iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ularning individual-psixologik,fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o'rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish; axborot-psixologik xurujlarning xavfi, Internet jahon axborot tarmog'ining salbiy ta'siri, yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan —ommaviy madaniyatning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish; pedagog xodimlar, o'quvchilar hamda ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga ko'maklashish, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ta'minlash kabi bir qator masalalar psixologik xizmatning asosiy vazifalari etib belgilandi.[5,270]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI INOBATGA OLGAN HOLDA TA'LIM TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH,Z.Sh.Yusupova,A.Y.Temirov,235-b

2.BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI INOBATGA OLGAN HOLDA TA'LIM TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH,Z.Sh.Yusupova,A.Y.Temirov,236-b

3.Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences
VOLUME 2 | ISSUE 9 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022:



5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7, BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI, Saparova Umida Bahromovna, 240-243-b

4.JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME6 ISSUE-5 (30-May) BOSHLANGICH SINF O‘QUVCHILARI BILAN PSIXOLOGIK ISHLASH YO‘LLARI Madaminova Madina Abdurasulovna Xodjayeva Gulyor Axmedova, Matyoqubova Zuhra Yoldosh qizi, 699-b

5.SO‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI respublika ilmiy-uslubiy jurnali 268 PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA-TA`LIM TARBIYA MUAMMOLARINI TADQIQ QILISH, Mansurova Munisa, 270-b